

## **ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR UCHUN BOSHLANG'ICH TA'LIM**

*Xorazm viloyati Urganch shahar Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan  
zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan 32-sonli maktab-internati  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Babadjonova Nilufar Hamidjonovna***

***Annoatsiya:** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan sohasi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash uchun nafaqat aniq individga, ma'lum bir guruhga, balki jamiyat va davlat uchun zarur va muhim hisoblanadi. Shuningdek, "Ijtimoiy ish" sohasi jamoatchilik amortizatori rolini bajaradi, ijtimoiy himoyaga muhtoj axoli uchun tanglikni oldini olish va osoyishtalikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda muhim ahamiyat ega.*

***Kalit so'zlar:** Qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-hayotiy, ta'lim, tabiya, mashg'ulot jarayoni.*

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan maktablarda boshlang'ich talim jarayoni bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi. Shu o'rinda bolalarning ta'limning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Sog'lom bola ilk rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Yaqin odamlar bilan muloqotda bo'lishi orqali asta-sekin xulq-atvor me'yorlarini o'rganadi. Lekin bu davrda uning harakatlari anglanmagan bo'ladi.

Asta-sekin bolaning ichki dunyosi shakllanadi. Bolaning kattalar bilan munosabat shakli o'zgaradi, atrof-muhitdagi narsalar dunyosiga kirib boradi va shu asosda predmetli faoliyatni o'zlashtiradi. Ana shu predmetli faoliyat asosida bola kattalar bilan muloqotga kirishadi, predmetlarning obrazi bilan bog'liq ravishda atrof-muhitni o'rganadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ushbu imkoniyatni yakka mashg'ulot o'qituvchilari kengroq va samaraliroq ta'minlab beradi. Chunki ular o'quvchilarning nutqiy nafasi, ovozi, tovushlar talaffuzi ustida ishlarni tizimli olib boradilar. Har bir tovushni qo'yish va mustahkamlash kabi vazifalarni amalga oshiradilar. Eshituv sezgisining shikastlanganligi kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni eshitish, ma'no jihatini anglashni qiyinlashtiradi. Biroq ular ham jamiyatda yashaydi. Shuning uchun ularda atrofdagilar bilan muloqot qilish ehtiyoji tug'iladi. Kar bola o'z sog'lom (eshituvchi) tengqurlariga nisbatan maktabgacha davrda juda tor va cheklangan muhitda muloqotda bo'ladi. Bunga sabab kar bola so'zlashuv nutqiga ega bo'lmaydi. Lekin kar va zaif eshituvchi bola atrofdagilar bilan muloqotda o'z «tili»ni yaratadi. Bu til oila miqyosida shartli qabul qilingan imo-ishoralardan iborat bo'lib, juda kambag'al bo'ladi va aynan shu bola bilan doimiy muloqotdagi kamchilikni tashkil qilgan shaxslar uchungina tushunarli bo'ladi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan yoshlar orasida eshitishida muammolari bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar mavjud bo'lib, ular maxsus o'quv reja, o'quv dasturlari asosida maktab ta'limini egallaydilar. Ular uchun ta'lim maxsus korreksion yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosida tashkil etilib, defektologik ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining maqsadi o'quvchilarning so'zlashuv nutqini rivojlantirish zahirida ularga o'quv rejada ko'zda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar berish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarda ijtimoiy-hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida o'quvchilar fan asoslarini o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'rgansalar, tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydilar.

## Adabiyotlar

1.Ишматова, О. С. (2021). Цели и задачи исследования развития устной речи детей с нарушениями слуха средствами фонетической ритмики. in наука, образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты (pp. 241-243).

2. Ishmatova, O. S., & Abdujalil O'g'li, H. A. (2022). MAVZU: IMKONIYATI CHEKLANGANLAR FAOLIYATIDA AKT NING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 24-28.

3. Ishmatova, O. S. (2022). NUTQIY NUQSONLARNI BARTARAF ETISHDA FONETIK RITMIKANING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 378-380.

4. Ishmatova, O. S. (2022). Boshlangich ta'lim sifatini yangilashda umumtalim maktablarda logopedik shaxobchalar faoliyatining orni. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 388- 391.